

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AQLIY  
RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Odilova Dilbar O'sarjon qizi**

*Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika va  
Psixologiya mutaxasisligi 2-bosqich magstranti*

**Ostonov Jasur Shopirjonovich**

*Ilmiy rahbar: p.f.f.d(PhD),dotsent*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlangich ta`lim tizimida o`quvchilar aqliy rivojlanishida yuzaga keladigan muammolarni kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilishning nazariy va amaliy tomonlaridan foydalanish xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta`lim,aqliy taraqqiyot,nutq, tafakkur, qobilyat.

**Abstract:** This article discusses the causes of problems in the mental development of students in the primary education system and the use of theoretical and practical aspects of their elimination.

**Key words:** elementary education, mental development, speech, thinking, ability.

Bolaning aqliy rivojlanishi atrof-muhitni bevosita sezgi idrok etish bilan boshlanadi (vizual tayyorgarlikka bo`lgan pedagogik talab) Ikkinci va eng yuqori darajadagi bilim - bu mavhum tafakkur. Sensor idrok tafakkurni aniq, real, "jonli" tasvirlar, faktlar va mavhum tafakkur bilan doimiy ravishda boyitadi, shu asosda tirik fikrlash uchun mavjud bo`lmagan narsalarning xossalari va munosabatlariga kirishga imkon aqsadli faoliyati asosda tirik fikrlash uchun mayjud bo`lmagan narsalarning xossalari va munosabatlariga kirishga imkon beradi. Ob'ektlar, hodisalar, ularning o`zaro munosabatlari bolaga fikrlash orqali ochiladi. Mavhum fikrlash bolaning aqliy kuchlarini iqtisodiy jihatdan sarflash, uning xotirasida bola o`xhash narsalar, yangi ob'ektlar va hodisalarni o`rganish orqali foydalanadigan tasvirlarning butun to`plamini yaratishga imkon beradi. Bola astasekin o`zlashtiradigan aqliy operatsiyalar: tahlil qilish, umumlashtirish, tasniflash, "qaror" - bu inson miyasining iqtisodiy faoliyatining namunasidir. Bugunga kunda mamalakatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, iste`dodliyoshlarni tarbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan ta`li jarayonini mukammallashtirmay jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib bo`lmaydi. Ma'lumki, har qanday insonning o'sish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta`lim-tarbiya faoliyatisiz amalgam oshmaydi.

Aqliy taraqqiyot va ta`lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog'liq faoliyatdir. Ta`lim tizimini tubdan isloh qilish hozirgi davr talabi bo`lib, ta`lim tizimidagi o`zgarishlar, o`quv dasturini mukammallashtish, muammoli darslarni tashkil qilish ta`limni mukammallashtirishga qaratilgandir. Ta`lim jarayonida o`quvchi faollik ko`rsatmasa amalgam oshirilayotgan tadbirlar ko`zlangan natijani bermaydi. Ta`lim jarayonida o`quvchilarni mustaqil ishlashga o`rgatish ham muhimdir. Ta`lim jarayonida ular,maktab o`quvchilariga qo`yiladigan har -xil talablar bilan tanishadi. Fanlarni o`zlashtirish uchun

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

psixologik jihatdan tayyorlanadi. Ular psixikasida bilim olish uchun ko`nikma, malakalar yeterli darajada rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyati o`qish hisoblanadi. O`quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlnishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgash bola o`z atrofidaglar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o`tadi. U o`zining hayotini tubdan o`zgartirishni, unga yangi mjburiyatlar, o`quv faoliyati talablariga bo`y so`nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi.oila a`zolarining bola o`quv faoliyati yutiqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqeい o`zgarganligini to`la his etishga o`ziga nisbatan munosabatning o`zgarishiga asos bo`ladi. Ta`lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallsh ko`لامi kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobilayati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o`rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Bola maktabga qadam qo`yishi bilanoq unga bo`lgan munosabat va talablar orqali o`ziga xos bo`lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart –sharoitlar yaratish oila, maktab ta`lim tizimiga ulkam ma`suliyat hissini yuklaydi.

Har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o'zlashtirgani aniqlamay ular bilan yakkama- yakka munosabatga kirishish mumkin emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilar ishonuvchan tashqi taasurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk alomallarimiz ta kidlaganidek, kishining fe'l atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarda tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'nashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarni tarkib toptirish yuksak axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o'qituvchining har bir gapi har bir hatti- harakati ta'sir ko'rsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshriqlarni bekam-u ko'st bajarishga intiladilar. Ana shu davrga o'qituvchi uchun o'qituvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish ijobiy his tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qo'llabquvvatlash ularni atrofdagi kishilar yordam berishga undashadi. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug'ul lanish kerakligini burch hissini tushuntirish, ular bilan o'qilgan kitoblarni ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi shu ularni g'aroyibotlar olamiga olib kirishi faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshdagи o'quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologil xususiyatlarini hisobga olish shart. Ma'lumki o'quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo'lib, bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta' sir vositasi boshqa birga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlash o'quvchilarga yakkama-yakka yondoshib amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

shubhasizdir. Mana shuday yondashishlar o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davidagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni topish. O`qishni talab qiladi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarga g'amxo'rligi pedagogik odobi o'z hatti harakatining natijasini oldindan ko'ra olish muhim ro'l o'ynaydi. Mazkur vazifalarni amalgam oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganiga bog'liqdir. Ta'lif jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvoffaqiyatlarning garovidir.

Ma'lumki I-II sinf o`quvchilarida xali qiziqishlar yaqqol namoyon bo`lmaydi, o`quvchilar o`qish jarayonida hamma narsalarga qiziqish bilan munosabatda bo`ladilar. O`zlari o`zlashtirgan faoliyat ularni qanoatlantiradi. Keyinchalik esa, sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o`rtasidagi aloqa va bog`liqliklarni bilib olish uchun bo`lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar I-II sinf o`quvchilarini "Bu nima?" – degan savol ko`proq qiziqtirsa, bir muncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun "Nima sababdan?", "Qanday qilib?" degan savollar muhim bo`lib qoladi. O`qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o`qishga qiziqish yuzaga keladi. Dastavval kitob o`qishga, undan so`ng esa mazmuni o`tkir va qiziqarli bo`lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o`qishga, keyinchalik qiyin bo`lмаган ilmiy sarguzashtlar haqida kitoblarni o`qishga qiziqish paydo bo`ladi. I-II sinf o`quvchilarini o`zlashtirayotgan materialni mazmuni, o`qish ishlarining ayrim usullari o`ziga jalgan eta boshlaydi. III va IV sinf o`quvchilarining mustaqilligi o`sib boradi. Bu yoshdagi o`quvchilar aqliy faoliyat usullari, o`z xotirasi, nutqi, diqqati hamda irodasini o`stirish bilan bog`liq bo`lgan barcha ishlarga qiziqa boshlaydi. IV sinfda o`quvchilar o`zlarining har xil fanga bo`lgan qiziqishlarini aniq belgilaydilar. Fanlardan ba'zilariga ko`proq e'tibor berib uni yoqtirsalar, ba'zilarini yoqtirmaydilar. O`quvchilar qaysi ishdan ko`proq qanoat hosil qilsalar, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganda o`ziga bo`lgan ishonchni yo`qotmasligi, o`ziga topshirilgan ishni bajara olishni bilish, buning uchun esa faqat g`ayrat – shijoat ko`rsatish kerakligini anglashi kerak. O`quvchilarda ta'lif va tarbiya olish, dam olish tartibining to`q`ri uyushtirilishi ham o`quvchilarda qiziqishlarning barqaror bo`lishida muhim ahamiyatga ega. O`quvchilarning qiziqishlari kattalarni diqqat e'tiborida bo`lishi lozim. Bolalarni ijobjiy qiziqishlari kattalar tomonidan rag`batlantirishi, quvvatlantirilishi kerak. Ularni qiziqishlarini payqash, uning uchun eng sevimli, doimo o`ziga jalgan etadigan faoliyatni e'tiborga olmaydigan o`qituvchi va ota-onalar yomon pedagog va yomon tarbiyachidir. O`quvchi uchun o`qituvchi hayotining eng yaxshi idealidir. Doimo oldinga qarab intiluvchi, mazmunli keng qiziqishlar bilan yashovchi o`qituvchi o`quvchilarga yuksak ma'naviy qiziqishlarni, aqliy rivojlanishni paydo bo`lishiga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda texnikaga, hozirgi zamon texnikalari, eng yangi tipdagi avtomobil, samolyot, kopmyuterga bo`lgan qiziqishlar tez tarkib topadi. Qishloq maktablarining III va IV sinf o`quvchilari qishloq xo`jaligiga nisbatan sezilarli darajada o`z qiziqishlarini namoyon qila boshlaydi. Bolalar parandalarni, uy hayvonlarini bajonidil boqadilar va ular haqida ma'lumotlar to`play boshlaydilar. Bu esa bolalarni bilish darajasini rivojlanishiga ta'sir etib boradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o`qishga bo`lgan qiziqishni rivojlanishi to`g`ridan – to`g`ri ta'limning tashkil qilinishiga bog`liq. Shuning uchun o`qituvchi

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

boshlang`ich sinf o`quvchilarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishlari kerak.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki,maktab yoshidagi, ayniqsa kichik mакtab yoishidagi bolalar har qanday tashqu muhit sharoitiga ta’sirchan bo’lib,ularning har tomomlama rivojlanishlariga o’z ta’sini otkazadi va ularning rivojlanishida o’z tenqurlaridan ortda qolishadi. Uchinchi sinf o’quvchilarning odob tog’risidagi fikr, va mulohazalari mazmuni va shakli va tuzilishi bilan fikr mulohazalaridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko’lami kengroqligi yosh davri xususiyatiga bog’liq farq bilan narsaga turlicha qarsh har xil yondashish muammo mohiyatini ochib berish uslubi bo'yicha ham farqlar mavjuddir. I-III sinf o’quvchilarida axloqiy tushunchalarni tarkib topishi uchun avvalo har bir tushunchaning muhim alomatini ajratishning umumlashtiruvchi ikkinchi darajali belgilarni topishi o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boymurodov N Amaliy psixologiya T.: 2008 y- 316 b.
2. Dilnoza Xalkuziyeva ., Maktabgacha yoshidagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorligining psixologik jihatlari. SCIENTIFIC PROGRESS. 2021/6, pp 704-706
3. Ivanov P.I. M.Zufarova “Umumiyl psixologiya” T.: 2008 y

